Ikkinchidan, Sivilistik doktrinada yuridik mulkdor va benefitsiar oʻrtasidagi munosabatlar xarakteriga koʻra, benefitsiar mulkning quyidagi turlari aniqlandi: bevosita benefitsiar mulk; bilvosita benefitsiar mulk; fidutsiar (ishonchli) mulk; yopiq (yashirin) benefitsiar mulk; jamoaviy (kollektiv) benefitsiar mulk.

Uchinchidan, "benefitsiar mulk" *(beneficial ownership)* konsepsiyasi anglo-amerika huquq tizimidagi "umumiy huquq" *(common law)* emas, balki adolat huquqi *(equity)*dan kelib chiqishi va uning tub mohiyatida "adolatga asoslangan munosabatlar" yotishi tahlil qilingan.

**Muhokama**

Dunyoda mulkchilik munosabatlarini adolatli va samarali huquqiy tartibga solish, shuningdek, mulkdorlarning oʻz huquqlarini qonuniy asosda amalga oshirishini ta'minlash davlat va jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mulk huquqining ishonchli himoyasi investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini ragʻbatlantirish hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, moddiy ne'matlar, korxonalar va xoʻjalik yurituvchi subyektlarga nisbatan "benefitsiar mulk" shaklidagi egalikning iqtisodiy-huquqiy asoslarini aniqlash va uni kompleks tartibga solish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyot shuni koʻrsatadiki, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va noqonuniy moliyaviy oqimlarning oldini olish maqsadida "benefitsiar mulkdorlar" toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni oshkor qilish instituti tobora keng joriy etilmoqda. 2024-yil mart holatiga koʻra, 149 ta davlat tomonidan benefitsiar mulkdorlarning ochiq reyestrini yuritish majburiyatining qabul qilingani ushbu yoʻnalishning global miqyosda ustuvor ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda Buyuk Britaniya, Latviya, Estoniya, Daniya, Malta, Irlandiya va Germaniya kabi davlatlarda bunday reyestrlar amalda faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, Niderlandiya, Vengriya, Polsha va Ruminiyada mazkur tizimlarni joriy etish jarayoni yakuniy bosqichga yaqinlashmoqda. Bu esa benefitsiar mulkdorlikni oshkoralashtirish orqali iqtisodiy tizimda ishonchlilikni oshirish, korrupsiya va "yashirin iqtisodiyot" koʻlamini qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda "benefitsiar mulk" tushunchasi turlicha talqin qilinadi va u ijobiy hamda salbiy jihatlarga ega murakkab huquqiy-iqtisodiy hodisa sifatida baholanadi. Xususan, mazkur institutni tushuntirishda "benefitsiar mulk nazariyasi", "iqtisodiy mulk nazariyasi" hamda "manfaat nazariyasi" kabi yondashuvlar shakllangan boʻlib, ular mulkning haqiqiy egasini

aniqlash va uning huquqiy maqomini belgilashga qaratilgan. Shuningdek, benefitsiar mulk instituti trast, ishonchli boshqaruv, uzufrukt va superfisiy kabi institutlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Bu esa uning murakkab, ko'p qatlamli hamda turli huquq tizimlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi institut ekanligini ko'rsatadi.

Huquq tizimlari nuqtayi nazaridan yondashilganda, anglo-amerika huquq tizimida mulk huquqining "parchalanishi" tamoyiliga asoslanib, benefitsiar mulk *(beneficial ownership)* konsepsiyasi umumiy huquq *(common law)*dan emas, balki adolat huquqi *(equity)* institutidan kelib chiqadi. Bu yerda mulkka nisbatan huquqlar formal va haqiqiy egalik o'rtasida taqsimlanadi. Qit'a huquq tizimida esa aksincha, mulk huquqining yagonaligi prinsipi ustuvor bo'lib, "iqtisodiy mulk" tushunchasi bevosita mulk huquqining bo'linmasligi g'oyasiga asoslanadi. Shu bilan birga, ushbu tizimda benefitsiar munosabatlarga o'xshash elementlar fuqarolik kodekslarida nazarda tutilgan *uzufrukt* va ishonchli boshqaruv kabi institutlar orqali ifodalanadi.

Mohiyatan, benefitsiar mulk ko'pincha mulkning haqiqiy egasi "formal egasi" ortida yashiringan holatni ifodalaydi. Bu esa, bir tomondan, biznes jarayonlarida moslashuvchanlik va samaradorlikni oshirsa, boshqa tomondan, moliyaviy suiiste'mollik, soliqlardan qochish yoki noqonuniy operatsiyalarni yashirish xavfini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli benefitsiar mulkdorlarni aniqlash, ularning huquqiy maqomini belgilash hamda ularga nisbatan aniq nazorat va tartibga solish mexanizmlarini joriy etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida "benefitsiar mulk" tushunchasi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lsa-da, uni mustaqil mulk shakli sifatida kompleks tartibga solish, subyektlar doirasini aniq belgilash, ularning huquq va majburiyatlarini tizimli ravishda mustahkamlash hamda benefitsiar mulkka asoslangan biznes faoliyatiga oid yagona yondashuvni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, milliy iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va noqonuniy iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashish nuqtayi nazaridan ushbu masala dolzarb hisoblanadi.

Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomada "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashish zarurati alohida ta'kidlanib, uning mavjudligi sog'lom raqobatni shakllantirish va qulay investitsiya muhitini yaratishga jiddiy to'sqinlik qilayotgani qayd etilgan. Ushbu yondashuv benefitsiar mulkni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiy faoliyatning oshkoraligini ta'minlash hamda huquqni qo'llash amaliyotini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuridik adabiyotlarda mulk huquqining huquqiy tabiati borasida bir qator qimmatli fikrlar bildirilgan. Xususan, S.V. Shitkovning fikriga ko'ra "mulk huquqi, avvalo, subyektiv huquq bo'lib, egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish kabi umume'tirof etilgan xususiyatlardan tashqari, "narsa (buyum) ustidan eng to'liq hukmronlik" belgisi asosida tavsiflanadi" (Shitkov, 2006).

B. Topildiyevning ta'kidlashicha, mazkur mulkdan manfaatdor shaxs o'z mulkidan begonalashmagan ("uzoqlashmagan") holda mulkiy huquqlarini amalga oshiradi va bu orqali foyda ko'radi (Topildiyev, 2020).

Ma'lumki, qit'a huquqida shaxs mulkka ega emas, balki unga bo'lgan huquqqa ega hisoblanadi. Masalan, R. Savate shunday yozgan: "Ashyolar yuridik hayotda faqat ular bilan bog'liq huquqlar orqali ishtirok etadi... Mulk huquqini ko'pincha uning obyekti bo'lgan ashyo bilan aralashtirishadi. "Menda ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi bor" deb aytish o'rniga, "menda bu mol-mulk bor" deb aytish qulayroq va tezroqdir. Ammo bunday iboralar haqiqiy tushunchalarni buzmasligi kerak. Mol-mulk – bu real ashyo emas, balki mol-mulk mulkiy huquqdir" (Savatier, 1972).

Shu sababli "mulkdorga ashyoning o'zi emas, balki unga bo'lgan huquq tegishlidir" degan konsepsiya kontinental huquq tizimi yuristlari uchun juda tanish bo'lib, u umumiy huquq va kontinental huquq tizimlari o'rtasidagi jiddiy g'oyaviy to'siq hisoblanmaydi.

Benefitsiar mulkning huquqiy maqomini belgilashda zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimidagi mulkiy majmualarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Huquqiy maqomning aniqlanishi davlat ro'yxatidan o'tkazish, mulkiy huquqlarni amalga oshirishga ruxsat berish, soliqqa tortish hamda davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlarni qo'llash (yoki


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

qo'llamaslik) masalalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Benefitsiar mulkchilik *(beneficial ownership)* konsepsiyasi ingliz adolat huquqi *(equity)*dan kelib chiqqan. Adolat huquqi bo'yicha benefitsiar mulkdor *(beneficial owner)* muayyan obyektning mulkdori hisoblanadi, chunki unga ushbu obyektga bo'lgan huquq (titul) tegishli yoki u ushbu obyektdan foydalanadi, garchi yuridik titul *(legal title)* boshqa shaxsga tegishli bo'lishi mumkin (Garner, 1999).

"Benefitsiar mulk" tushunchasi atrofidagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilishda avvalo uning tarixiy-huquqiy ildizlarini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, an'anaviy umumiy huquq tizimida mulk huquqining "yuridik mulk" va "iqtisodiy manfaat"ga asoslangan bo'linishi ushbu institutning shakllanishiga asos bo'lgan. Mazkur yondashuvda mulkka egalik qilish huquqi bilan undan iqtisodiy foyda olish huquqi o'rtasidagi farq alohida e'tirof etiladi.

Anglo-sakson huquq tizimiga mansub mamlakatlarda "benefitsiar mulkdor" tushunchasi uzoq tarixiy taraqqiyotga ega bo'lib, Buyuk Britaniya huquqiy modeli asosida shakllangan davlatlarda "qonuniy egasi" *(legal owner)*, "benefitsiar egasi" *(beneficial owner)* va "nominal egasi" *(nominee owner)* kabi institutlar keng qo'llanadi. Ushbu kategoriyalar mulkchilik munosabatlarining funksional jihatdan turli mazmunini ifodalab, mulk huquqining iqtisodiy va huquqiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga muvofiq, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy tizimning asosini turli mulk shakllari tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat muhitini yaratish, iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligini ta'minlash hamda iste'molchilar huquqlarining ustuvorligini kafolatlash majburiyatini oladi. Shuningdek, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va ularning huquqiy himoyasi ta'minlanishi belgilangan. Xususiy mulk esa daxlsiz bo'lib, mulkdor undan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va sud qarori asosida mahrum etilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda benefitsiar mulkdor ko'pincha tashkil etilayotgan yuridik shaxs mol-mulkining "haqiqiy egasi" sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv esa milliy huquq tizimida mavjud "mulk huquqining yagonaligi" tamoyili bilan bog'liq bir qator nazariy savollarni yuzaga keltiradi. Jumladan, mulkning yagona egasi tamoyili sharoitida benefitsiar mulkdor institutining huquqiy maqomi qanday izohlanadi va u amaldagi qonunchilikka qay darajada mos keladi, degan masala dolzarb bo'lib qolmoqda.

I.B. Zokirovning ta'kidlashicha, qit'a huquq tizimida mulk huquqi Rim huquqi an'analariga asoslanib, "bir ashyoga nisbatan ikki to'liq mulk huquqi mavjud bo'lishi mumkin emas" degan prinsipga tayanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, mulk huquqi yagona va bo'linmas xususiyatga ega bo'lib, uning "parchalanishi" nazariy jihatdan inkor etiladi (Zokirov, 2006). Biroq hayotiy ehtiyojlar va iqtisodiy munosabatlar murakkablashuvi natijasida ayrim holatlarda mulkka nisbatan alohida huquqlar yoki iqtisodiy manfaatlar shakllanishi mumkin. Shu sababli qit'a huquqi tizimi so'nggi yillarda anglo-amerika huquqidagi ayrim konstruksiyalarni moslashtirish tendensiyasini namoyon etmoqda. Biroq bu jarayonda an'anaviy tamoyillar to'liq buzilmagan holda, ular milliy huquqiy tizimga moslashtirilgan shaklda qo'llanmoqda. Xususan, ishonchli boshqaruv *(trust)* instituti o'rniga mol-mulkni ishonchli boshqarish modeli joriy etilgan.

Benefitsiar mulk ko'p hollarda *de facto* xarakterga ega bo'lib, u mulkka nisbatan rasmiy huquqiy egalik mavjud bo'lmagan, biroq undan amalda foyda olinadigan yoki uni real iqtisodiy jihatdan boshqaradigan shaxsning holatini ifodalaydi. Bunday vaziyatda benefitsiar shaxs mulkka nisbatan yuridik jihatdan tasdiqlangan mulkdor hisoblanmasa-da, u amalda undan foydalanish va iqtisodiy naf olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

*De facto* holatdagi benefitsiar mulk munosabatlarida mulkni boshqarish, nazorat qilish hamda undan daromad olish huquqlari rasmiy hujjatlar bilan to'liq mustahkamlanmagan bo'lsada, amaliyotda ushbu huquqlarning real mavjudligi kuzatiladi. Bunda mulkni o'z nomidan boshqarayotgan subyekt bilan mulkning rasmiy egasi o'rtasida huquqiy ajralish yuzaga keladi, ya'ni yuridik egalik bir shaxsga, iqtisodiy manfaat esa boshqa shaxsga tegishli bo'lishi mumkin.

Mazkur holatda amalda mulkdan foyda olayotgan shaxs benefitsiar mulkning *de facto* egasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, ijaraga olingan mulkdan foydalanayotgan shaxs rasmiy mulkdor

boʻlmasa-da, undan iqtisodiy foyda koʻrishi mumkin. Xuddi shunday, ishonchli boshqaruv yoki vositachilik asosida mulkdan foydalanayotgan kompaniya yoki shaxs ham mulkning yuridik egasi boʻlmasdan turib, undan daromad olishi mumkin.

Bunday vaziyatlar koʻpincha rasmiy mulkdor va amalda foydalanuvchi oʻrtasida huquqiy nizolar yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Chunki *de facto* benefitsiar oʻz iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida huquqiy talablar qoʻyishi mumkin, bu esa mulk huquqining an'anaviy talqinida murakkabliklar keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, benefitsiar mulk tushunchasiga quyidagi ilmiy ta'rifni taklif etish mumkin: benefitsiar mulk – bu yuridik konstruksiya boʻlib, unda mulk yoki aktivlarning rasmiy huquqiy egaligi bir shaxs yoki tashkilot nomiga rasmiylashtirilgan boʻlsa-da, ulardan foydalanish, tasarruf etish hamda iqtisodiy foyda olish huquqi boshqa shaxsga tegishli boʻladi. Xalqaro huquq amaliyotida benefitsiar mulk *(beneficial ownership)* koʻpincha yashirin yoki bilvosita mulkchilik shakli sifatida talqin qilinadi, bunda haqiqiy foyda oluvchi shaxs aktivdan iqtisodiy manfaat koʻradi, biroq rasmiy mulkdor sifatida qayd etilmaydi (Raximova, 2024).

Sivilistik doktrinada yuridik mulkdor va benefitsiar oʻrtasidagi munosabatlarning xarakteriga koʻra, benefitsiar mulkning bir necha turlari farqlanadi:

Bevosita benefitsiar mulk – bunda shaxs mulkka nisbatan iqtisodiy huquqlarga ega boʻlsa-da, uning nomi rasmiy reyestrlarda aks ettirilmaydi. Bunda ishonchli boshqaruv *(trust)* instituti yorqin misol boʻla oladi.

Bilvosita benefitsiar mulk – bunda benefitsiar shaxs aktivlarga yuridik shaxslar zanjiri (masalan, ofshor kompaniyalar yoki xolding tuzilmalari) orqali egalik qiladi. Ushbu shakl koʻpincha korporativ boshqaruv va soliqni rejalashtirish amaliyotida uchraydi.

Fidutsiar (ishonchli) mulk – bunda mulk huquqi nominal ega nomiga rasmiylashtirilgan boʻlsa-da, iqtisodiy manfaatlar toʻliq benefitsiarga tegishli boʻladi. Bu institut, ayniqsa, anglo-sakson huquq tizimida keng tarqalgan (Avery Jones et al., 2006).

Yopiq (yashirin) benefitsiar mulk – rasmiy mulkdor mavjud boʻlsa-da, mulk ustidan haqiqiy nazorat va undan olinadigan daromad boshqa shaxsga tegishli boʻladi. Ushbu shakl odatda soliqdan qochish yoki aktivlarni yashirish sxemalarida uchraydi.

Jamoaviy (kollektiv) benefitsiar mulk – bunda mulk bir guruh shaxslarga tegishli boʻlib, har bir ishtirokchi oʻz ulushiga mutanosib ravishda foyda oladi (masalan, investitsiya fondlari yoki sheriklik asosidagi tuzilmalar). Ushbu shakl korporativ huquq va moliyaviy bozorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Qizigʻi shundaki, benefitsiarning bilvosita da'volarni ilgari surishdagi huquqiy asoslari bilan tashkilot hujjatlari va axborotlarini talab qilishga oid talablar oʻrtasida ma'lum darajada mantiqiy uygʻunlik mavjud. Shu bois, sud amaliyotida shakllangan yondashuv ushbu holatlarga ham tatbiq etilishi kerakdek koʻrinadi.

Mazkur vaziyatda korporativ pardani *("corporate veil")* bekor qilish haqida emas, balki aksincha, "korporativ oshkoralik" masalasi haqida soʻz bormoqda. Bunda manfaatdor shaxs oʻz maqomi va manfaatini ixtiyoriy ravishda oshkor etadi (Podshivalov, 2018).

Shunga qaramay, amaliyotda sudlarning bunday talablarni qoʻllab-quvvatlamaslik holatlari uchraydi va hozircha yakuniy benefitsiar foydasiga chiqarilgan ijobiy qarorlar deyarli kuzatilmaydi.

Nazorat qilinayotgan tashkilotdan hujjatlar talab qilgan yakuniy benefitsiarlarning da'volarini rad etar ekan, sudlar amaldagi qonunchilikda bunday himoya usuli nazarda tutilmaganini asos sifatida koʻrsatadilar (Langenbucher, 1998). Ya'ni, muayyan normani yangi huquqiy vaziyatga toʻgʻridan toʻgʻri qoʻllash imkoniyatining mavjud emasligi qonunchilikdagi boʻshliq deb emas, balki bunday himoya mexanizmi umuman koʻzda tutilmagan deb talqin qilinadi. Sudlarning pozitsiyasiga koʻra, jamiyat hujjatlari va ma'lumotlarini talab qilish huquqi faqat uning bevosita ishtirokchilariga tegishlidir. Ular ushbu vakolatdan oʻz korporativ manfaatlarini himoya qilish maqsadida foydalanishlari mumkin. Biroq uchinchi shaxslar, hatto tashkilotni amalda nazorat qilayotgan benefitsiarlar ham, bunday huquqqa ega emas deb hisoblanadi. Shu sababli FKning 5-moddasini qoʻllash uchun asos yoʻq deb topiladi.

Bundan tashqari, benefitsiarning zarur ma'lumotlarni olish ehtiyoji keyinchalik subsidiar


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

javobgarlikka tortilish xavfining oldini olish bilan bog‘liq degan vaj ham sudlar tomonidan qabul qilinmaydi. Chunki amaldagi huquqiy tartib ehtimoliy yoki kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida sud himoyasini kafolatlamaydi.

Aslida, sudlar bunday yondashuv orqali yakuniy benefitsiarning ma’lumot olish usuli mavjud emasligini emas, balki uning axborot olish huquqining o‘zi mavjud emasligini ta’kidlamoqda.

Masalan, bir ishda sud benefitsiar mulkdorning – ya’ni javobgar jamiyat ishtirokchisining – hujjatlar hamda ma’lumotlarni taqdim etish haqidagi talabini rad etar ekan, korporativ huquq sohasida “benefitsiar mulkdor” tushunchasi normativ jihatdan mustahkamlanmaganini qayd etgan. Shuningdek, sud O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunida uchraydigan ushbu tushuncha faqat mazkur Qonunning ommaviy-huquqiy maqsadlari doirasida qo‘llanishini alohida ta’kidlagan. Xulosa qilib aytganda, benefitsiar mulk institutining turli ko‘rinishlari zamonaviy fuqarolik huquqi, korporativ boshqaruv, soliq siyosati hamda korrupsiyaga qarshi kurash tizimlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

E’tiborli jihati shundaki, bunday yondashuvni ikki karra vositali *(double derivative)* va kvazibilvosita da’volarga nisbatan tatbiq etish ham yakuniy benefitsiarlarning mazkur turdagi da’volarni qo‘zg‘atish huquqiga ega emasligi to‘g‘risidagi o‘xshash xulosaga olib keladi. Ilmiy manbalarda “bilvosita da’vogarlar” doirasiga haqiqiy benefitsiarlarni kiritishga qarshi bildirilgan e’tirozlar ham diqqatga sazovordir. Zero, ushbu holat yuridik shaxs nomidan kim va qanday shart-sharoitlarda sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligini belgilashda noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, tashkilot ishtirokchilari bilan uning ijro organlari o‘rtasida kelishmovchiliklarga, yuridik shaxsning tashkiliy birdamligi buzilishiga hamda sudlarga haddan tashqari keng diskretsion vakolatlar berilishiga sabab bo‘lishi mumkin (Gutnikov, 2021).

Mulkning iqtisodiy munosabati – bu birinchi navbatda, iqtisodiy faoliyat subyektlari o‘rtasida moddiy ne’matlar yuzasidan shakllanadigan munosabatlardir. Bunda eng avvalo, faktik munosabatlar – kim mulk obyektini nazorat qiladi, u to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega, undan foydalanish, uni begonalashtirish va daromadni taqsimlash tartibi to‘g‘risida qaror chiqaradi, e’tiborga olinadi (Imomov et al., 2016).

Benefitsiar mulkdorlar manfaatlari uchun eng ko‘p qo‘llanadigan shartnomalardan biri mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi hisoblanadi. B. Topildiyev (2020) ta’kidlaganidek, mol-mulkni ishonchli boshqarish instituti bozor munosabatlari sharoitida o‘ziga xos “murakkab mol-mulklar” bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar, pullar, mulkiy huquqlar va korxonalarni fuqarolik muomalasiga kiritishda va ulardan samarali foydalanishda muhim o‘rin tutadi. Bunda esa muayyan sohada bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan mutaxassis – boshqaruvchilarning mavjud bo‘lishi, professional boshqaruv kompaniyalarining yaratilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan birdir (Gutnikov, 2021). Mohiyatan mol-mulkni ishonchli boshqarishning milliy qonunchilikda ifodalangan normalari bevosita vakillik konsepsiyaga mos keladi. Zero, boshqaruv muassisi muayyan mol-mulkni boshqarish, aniq yuridik konstruksiyaga moslab aytganda esa muayyan yuridik yoki faktik xatti-harakatlarni amalga oshirish huquqini ishonchli boshqaruvchiga (vakilga deyish ham mumkin) beradi (Topildiyev, 2020).

Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada mol-mulkni ishonchli boshqarish bo‘yicha ayrim cheklovlar nazarda tutilmagan bo‘lsa, ishonchli boshqaruvchi shartnomaga asosan foyda oluvchining (benefitsiarning) manfaatlarini ko‘zlagan holda, ushbu mol-mulkka nisbatan har qanday yuridik va amaliy harakatlarni amalga oshirishga haqlidir. O‘z navbatida, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi shartnoma erkinligi prinsipiga muvofiq, tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida tuziladi (Timofeeva & Goloborodkina, 2016).

Professor Sharl Dyu To *(Charles du Toit)* ta’kidlaganidek, benefitsiar mulkdor – mulk huquqining eng to‘liq atributlariga (barcha huquqiy vakolatlarga) ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi (Du Toit, 1999).

Bunda ishonchli boshqaruv institutining benefitsiar mulk bilan bog‘liq eng dolzarb jihatlaridan biri – bu ishonchli boshqaruvchining javobgarligi masalasidir. FKning 859-moddasida ishonchli boshqaruvchining javobgarlikka torti-

lish asoslari, shartlari hamda javobgarlik doirasi belgilab qoʻyilgan.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda moliyaviy aktivlarni ishonchli boshqarish bilan shugʻullanuvchi subyektlarning, ayniqsa, islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan banklarning ishonchli boshqaruvchi sifatidagi javobgarlik chegaralari qonunchilikda yetarlicha aniq ifodalanmagan. Mazkur noaniqlik islom moliyasi munosabatlarida banklarning faoliyati bilan bogʻliq holda sezilarli iqtisodiy tavakkalchiliklar va moliyaviy zararlar yuzaga kelishiga sabab boʻlishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida FKning 859-moddasini oltinchi va yettinchi qismlar bilan toʻldirish maqsadga muvofiq boʻlar edi:

“Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar shartnomaga koʻra bank ishonchli boshqaruvchi sifatida qatnashayotgan hollarga nisbatan qoʻllanmaydi, bundan mazkur moddaning uchinchi qismida belgilangan holatlar mustasno.

Bank faqat zarar uning oʻziga berilgan vakolatlar doirasidan chiqib ketganligi yoki lozim darajadagi ehtiyotkorlikni namoyon etmaganligi (befarqligi) oqibatida yuzaga kelgani isbotlangan taqdirda, yetkazilgan zarar uchun javobgar hisoblanadi”.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, benefitsiar mulk instituti zamonaviy fuqarolik huquqi tizimida murakkab, koʻp qatlamli va dinamik rivojlanib borayotgan huquqiy kategoriya hisoblanadi. Uning mohiyati mulk huquqining formal (yuridik) va real (iqtisodiy) tarkibiy qismlarining ajralishi bilan bogʻliq boʻlib, bu holat an’anaviy mulk huquqi nazariyasining ayrim asosiy tamoyillarini qayta koʻrib chiqishni talab etadi. Xususan, mulk huquqining yagonaligi prinsipi va benefitsiar mulk amaliyoti oʻrtasidagi ziddiyat zamonaviy huquq tizimlarida yangi yondashuvlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni koʻrsatadiki, anglo-amerika huquq tizimida benefitsiar mulk konsepsiyasi adolat huquqi *(equity)* asosida shakllangan boʻlib, unda rasmiy va iqtisodiy egalik oʻrtasida aniq farqlanish mavjud. Kontinental huquq tizimida esa mulk huquqining yagonaligi prinsipi ustuvor boʻlib qolmoqda, biroq amaliy ehtiyojlar ta’sirida ishonchli boshqaruv va uzufrukt kabi institutlar orqali benefitsiar munosabatlarga yaqin mexanizmlar shakllantirilgan.

Benefitsiar mulkning *de facto* xarakteri uning huquqiy tabiatini aniqlashtirishni murakkablashtiradi hamda mulk huquqi subyektlari oʻrtasida nizolar yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shu sababli, ushbu institutni huquqiy jihatdan tartibga solish, benefitsiarlarni identifikatsiya qilish va ularning huquqiy maqomini mustahkamlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida benefitsiar mulkdor tushunchasi bilan bogʻliq normalar mavjud boʻlsa-da, ularni tizimli va kompleks huquqiy institut sifatida rivojlantirish zarur. Bu, oʻz navbatida, iqtisodiy shaffoflikni oshirish, “yashirin iqtisodiyot” koʻlamini qisqartirish hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Xulosa qilganda, benefitsiar mulk institutini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish zamonaviy huquqiy islohotlarning muhim strategik yoʻnalishlaridan biri sifatida baholanadi.

Fikrimizcha, qonunchilikka quyidagi normalarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga $168^1$-modda quyidagi mazmunda:

“$168^1$-modda. Benefitsiar mulk huquqi

Benefitsiar mulkdor – muayyan aktivga (asosiy vositalar, koʻchar mol-mulk yoki yuridik shaxs ustav fondidagi (kapitalidagi) ulushlar boʻlgan qonuniy mulk huquqi oʻz nomiga rasman roʻyxatdan oʻtkazilmagan boʻlsa-da, ushbu aktivga haqiqatda toʻliq yoki qisman egalik qiluvchi, undan naf koʻruvchi jismoniy yoki yuridik shaxsdir”.

Mol-mulkka egalik qilish va uni nazorat qilish bevosita yoki bilvosita amalga oshirilishi mumkin. Benefitsiar mulkdorning manfaatlari quyidagi mexanizmlar orqali (lekin ular bilan cheklanmagan holda) muhofaza qilinadi:

– shaxsga aktiv ustidan yoxud aktivdan olinadigan moliyaviy manfaat (daromad) ustidan nazoratni ta’minlaydigan huquqiy vosita (shartnoma yoki kelishuv);

– shaxsga tayinlangan vositachi (jismoniy yoki yuridik shaxs) orqali aktiv ustidan nazoratni amalga oshirish yoki undan moliyaviy foyda olish imkonini beruvchi huquqiy kelishuv yoki tuzilma”.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

Fuqarolik kodeksining 538-moddasidagi "mulk egasiga" soʻzlaridan keyin "yoki benefitsiar mulk huquqiga ega mol-mulk" degan soʻzlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Fuqarolik kodeksining 858-moddasi quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan toʻldirilsin, uchinchi qism tegishlicha toʻrtinchi qism deb hisoblansin:

"Ishonchli boshqaruvchi mol-mulkni boshqa shaxsga topshirganda, bu haqda zudlik bilan mol-mulkni boshqarish muassisini xabardor qilishi shart. Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan boʻlmasa, muassis ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni qoplagan, shuningdek, ishonchli boshqaruvchi ushbu faoliyatni tadbirkorlik sifatida amalga oshirayotganboʻlsa, unga yetkazilgan haqiqiy zararni toʻlagan holda, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi tugatilganligini maʼlum qilishga haqli".

## REFERENCES

Avery Jones, J. F., De Broe, L., Ellis, M. J., van Raad, K., Le Gall, J. P., Torrione, H., Miyatake, T., Roberts, S. I., Ward, D. A., Killius, J., Lenz, T., Marino, G., Avery Jones, J., & Wiman, B. (2006). The origins of concepts and expressions used in the OECD Model and their adoption by states. *Bulletin for International Taxation, 60*(6), 220–254.

Du Toit, C. P. (1999). *Beneficial ownership of royalties in bilateral tax treaties.* IBFD Publications. https://dare.uva.nl/search?identifier=53b81135-168f-4e74-84bb-608d7ab8f590

Garner, B. A. (Ed.). (1999). *Black's law dictionary* (7th ed.). West Group.

Grimm, D. D. (1897). Yuridicheskoe otnoshenie i subyektivnoe pravo [Legal relationship and subjective right]. *Ministry of Justice Journal,* (4), 21.

Gutnikov, O. V. (2021). Razvitie korporativnoy otvetstvennosti v sudebnoy praktike [Development of corporate liability in judicial practice]. *Journal of Russian Law, 25*(6), 48–65.

Imomov, N. F., Ergashev, V. Y., & Ashurova, N. A. (2016). *Xususiy mulkning huquqiy rejimini takomillashtirish: Axborot-tahliliy material* [Improving the legal regime of private property: Information-analytical material]. TSUL Publ.

Kavelin, K. D. (2003). *Rights and duties regarding property and obligations (as applied to Russian legislation): An essay on systematic review.* In *Selected works on civil law.* TsentrYurinfoR.

Langenbucher, K. (1998). Argument by analogy in European law. *The Cambridge Law Journal, 57*(3), 481–521.

Pobedonostsev, K. P. (2003). *Kurs grazhdanskogo prava* [Course of civil law]. Mirror.

Podshivalov, T. P. (2018). K voprosu o sootnoshenii doktriny benefitsiarnoy sobstvennosti i doktriny snyatiya korporativnoy vuali pri osparivanii korporativnykh resheniy [On the relationship between the doctrine of beneficial ownership and the doctrine of piercing the corporate veil when challenging corporate decisions]. *Perm Legal Almanac,* (1), 365–370.

Raximova, D. X. (2024). Fuqarolik huquqida benefitsiar mol-mulk tushunchasi va uning oʻziga xos xususiyatlari [The concept of beneficiary property in civil law and its specific characteristics]. *Oriental Journal of History, Politics and Law, 4*(5), 90–97. https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-04-05-14

Savatier, R. (1972). *Teoriya obyazatelstv: Yuridicheskiy i ekonomicheskiy ocherk* [Theory of obligations: A legal and economic essay]. Progress.

Shitkov, S. V. (2006). *Genezis i evolyutsiya prava sobstvennosti v istorii rossiyskogo prava* [Genesis and evolution of property law in the history of Russian law] (Abstract of doctoral dissertation). Moscow.

Timofeeva, R. I., & Goloborodkina, E. V. (2016). Doveritelnoe upravlenie imushchestvom [Trust management of property]. *The Rule of Law: Theory and Practice,* (2), 57–62.

Topildiyev, B. (2020). *Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasini takomillashtirish [Improving the agreement of trust management of property]* (Doctoral dissertation). TSUL.

Trubetskoy, E. N. (1998). *Entsiklopediya prava* [Encyclopedia of law]. Lun.

Zokirov, I. B. (2006). *Fuqarolik huquqi* [Civil law]. TSIL Publ.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.